

QODIRIY IJODIDA TANQIDIY REALIZATSIYANING FALSAFIY ASOSLARI.

Buxoro davlat universiteti

09.00.04 - Ijtimoiy falsafa yo'nalishi

1-bosqich tayanch doktornti

Naimov Dostonbek Rustamovich

naimovdostonbek1@gmail.com

[Tel: +998930944810](tel:+998930944810)

Annotatsiya. Ushbu matnda Abdulla Qodiriy ijodida tanqidiy realizm falsafasining o'ziga xos xususiyatlari badiiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari misolida adibni jamiyatning "kasallik tarixi"ni o'rganuvchi mohir diagnost sifatida talqin etadi. Matnda millatning ma'naviy tanazzuli va siyosiy inqirozi ildizlari kauzallik (sabab va oqibat), antropotsentrizm, ijtimoiy determinizm hamda shaxs va davlat ziddiyati falsafasi doirasida ochib berilgan. Shuningdek, adib asarlaridagi fojiaiy voqealar "inkor orqali tasdiqlash" prinsipi hamda gumanistik ideallar nuqtai nazaridan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Tanqidiy realizm, Abdulla Qodiriy, jamiyat diagnostikasi, kauzallik (sabab va oqibat), ma'naviy inqiroz, inkor orqali tasdiqlash, gumanizm, ijtimoiy determinizm, shaxs va davlat ziddiyati, tarixiy dialektika, jaholat, milliy uyg'onish.

Abstract: This text provides an artistic and philosophical analysis of the distinctive features of critical realism philosophy in the works of Abdulla Qodiriy. Using the novels *Bygone Days* ("O'tkan kunlar") and *The Scorpion from the Altar* ("Mehrobdan chayon") as examples, the author interprets Qodiriy as a skilled diagnostician studying the "case history" of society. The text uncovers the roots of the nation's spiritual decline and political crisis through the lenses of causality (cause and effect), anthropocentrism, social determinism, and the conflict between the individual and the state. Furthermore, the tragic

events in the author's works are justified from the perspective of humanistic ideals and the principle of "affirmation through negation."

Keywords: Critical realism, Abdulla Qodiriy, social diagnostics, causality (cause and effect), spiritual crisis, affirmation through negation, humanism, social determinism, conflict between individual and state, historical dialectics, ignorance, national awakening.

Аннотация: В данном тексте представлен художественно-философский анализ своеобразия философии критического реализма в творчестве Абдуллы Кодири. На примере романов "Минувшие дни" (*O'tkan kunlar*) и "Скорпион из алтаря" (*Mehrobdan chayon*) автор интерпретирует Кодири как искусного диагноста, исследующего "историю болезни" общества. В тексте раскрываются корни духовного упадка и политического кризиса нации в рамках каузальности (причинно-следственных связей), антропоцентризма, социального детерминизма, а также философии противоречия между личностью и государством. Кроме того, трагические события в произведениях писателя обосновываются с точки зрения гуманистических идеалов и принципа "утверждения через отрицание".

Ключевые слова: Критический реализм, Абдулла Кодири, диагностика общества, каузальность (причина и следствие), духовный кризис, утверждение через отрицание, гуманизм, социальный детерминизм, противоречие между личностью и государством, историческая диалектика, невежество, национальное пробуждение.

Kirish

Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida shunchaki badiiy mahorat maktabi emas, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy inqirozlarini fundamental tadqiq etgan o'ziga xos falsafiy tizim o'laroq namoyon bo'ladi. Adib asarlarida bo'y ko'rsatgan tanqidiy realizm metodi voqelikni shunchaki fiksatsiya qilish (bayon etish) chegarasidan chiqib, millat hayotidagi turg'unlik va tanazzulning tub sabablarini diagnostika qilishga xizmat qilgan. Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari orqali tarixiy dialektika, ijtimoiy determinizm hamda antropotsentrizm prinsiplariga tayanib, jamiyatni "inkor orqali tasdiqlash" falsafasi asosida qayta qurishga intildi. Quyida adib ijodidagi ana shu falsafiy asoslar, jamiyat tanazzulining kauzal (sabab-

oqibat) munosabatlari va shaxs hamda davlat to‘qnashuvining mohiyati matn tahlili misolida ko‘rib chiqiladi.

Umimiy holatda tanqidiy realizm falsafasini biz jamiyatni badiiy tahlil qilish orqali uni davolash va qayta qurish falsafasi sifatida qabul qilamiz. Shuning uchun ham Qodiriy o‘z asarlari orqali tanqidiy realizmni shunchaki jamiyat ijtimoiy manzaralarini ifodalash yoki fenomenlarni shunchaki bayon etish bilan emas balki xalqimizning asriy uyquasi, jamiyatimizning o‘sha davrdagi ma’naviy tanazzuli va siyosiy inqirozining chuqur falsafiy ildizlarini ochib berishga yo‘naltirilgan asoslar (usullar) orqali izohlaydi. Qodiriy o‘z asarlari orqali jamiyat va millatning “kasallik tarixi”ni tadqiq qiluvchi mohir diagnost kabi ish tutadi ya’ni, adib yillar davomida shakllangan mazkur illatlarni shunchaki o‘rganmaydi, balki bu illatlarning kelib chiqish holat va sabablarini avvalo inson tabiati, tarixiy sharoit va ijtimoiy tuzum ziddiyatlari va kamchiliklari negizida falsafiy mushohada etadi deyishimiz mumkin. Ushbu uslubning o‘ziga xos jihati shundaki, u kitobxonni shunchaki tomoshabinlikdan real voqealar mazmunini tushunishga, jamiyat qonuniyatlari ustida fikr yuritishga undaydi hamda tanqidiy realizmning poydevorini tashkil etuvchi fundamental jihatlarga quyidagicha falsafiy yondashadi.

Dastlab, jamiyatda yuzaga kelgan kamchilik va illatlarni shunchaki umumiy asoslar natijasi emas balki jaholat va tarqoqlik oqibati sifatida ko‘rsatilgan “Sabab va Oqibat” (Kauzallik qonuni) falsafasiga to‘xtlamiz. Chor Rossiyasini mamlakatimiz hududlariga bostirib kelishini tezlashtirgan hamda osonlashtirgan sabablardan biri sifatida bizning o‘sha davrdagi hukmron muhit (Toshkent hokimi Azizbek va Qo‘qon xonligining amaliy hukmdori va mingboshi bo‘lgan Musulmonqul kabi amaldorlarning Toshkent qamali va “Qipchoq qirg‘ini” bilan bog‘liq aniq tarixiy-badiiy vaziyatlarda o‘zaro hokimiyat talashishi, bir-biriga qarshi fitnalari)ni talqin qilishimiz mumkin. Bu kabi holatlar jamiyatda “qipchoq”, “o‘zbek”, “shaharli”, “dashtiy” kabilarg ajratilib o‘zaro ziddiyatlarga duchor etilgan.

*“It ittifoq bo‘ldi, to‘ng‘iz to‘qaydan chiqdi...”*¹ “Qipchoq qirg‘ini” mahalida Otabekning otasi tomonidan aytilgan bu iborani aynan shu vaziyatdagi qonxo‘rlikka va uning ortidan yuzaga keladigan salbiy oqibatlarga nisbatan berilgan real tahlil sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Yoinki, antropotsentrizm va ma‘naviy isloh falsafasi asosida Solih maxdum kabi obrazlar orqali ilm va ma‘rifatdan uzoqlashgan va o‘z o‘rnida, mavjud diniy aqidalarni noto‘g‘ri talqin qilib xalqni qorong‘ulikda ushlab turishga sababchi bo‘lgan holatlarni ayollar huquq va erkinliklarini cheklanishiga olib kelgan illatlar sifatida ko‘rsak xato bo‘lmaydi. Misol uchun Xudoyorxon tomonidan Ra’noga sovchi kelgan (haramga so‘ralgan) vaziyatda Solih maxdum tomonidan ishlatilgan *“Xudovandai olamning inoyati tushibdir, biz bandai ojizlar shukrona qilmoqimiz lozim.”*² jumlasini ortiga yashiringan “qullik psixologiyasi” asosida xon irodasiga mutlaq bo‘ysunish falsafasini ochiqdan-ochiq payqashimiz mumkin.

Tanqidiy realizmning antropologik va axloqiy-falsafiy asosi hisoblangan ma‘naviy inqiroz va estetik ideallar dialektikasi bo‘yicha Qodiriyning tanqidiy realizmi shunchaki jamiyat hayotdagi qora tomonlari ko‘rsatish emas, balki shu kabi illatlar orqali “mukamallik qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga javob izlashga undashdir. Shuningdek, adib jamiyat hayotidagi salbiy holatga sabab bo‘ladigan kamchiliklarni ko‘rsatish orqali xalqni aksincha ma‘naviy yetuklikka hamda ijtimoiy adolat sari yetaklashgan undaydi. Uning “O‘tkan kunlar” romanidagi fojiali yakun sifatidagi ayriliq hamda mavhumlik “Bu holatga nima sabab bo‘di? Bu fojianing oldini olish mumkinmide?” deb fikr-mulohaza qilishga undaydi. Bu “inkor orqali tasdiqlash” falsafasi sifatida jamiyat hayotidagi halokatli, xunuk va nafratli manzaralarni boricha tasvirlab berish orqali o‘sha davr kitobxonlari ongida ularning aksi bo‘lgan go‘zallik, adolat va poklikka nisbatan

¹ Qodiriy, A. O‘tkan kunlar: Roman / A. Qodiriy. – Toshkent: Sharq, 2019. – 400 b.

² Qodiriy, A. Mehrobdan chayon: Roman / A. Qodiriy. – Toshkent: Sharq, 2017. – 320 b.

kuchli ehtiyoj uygʻotishdir. Adib “jamiyatda bu kabi holatlarni vujudga kelishiga yoʻl qoʻymaslik kerak” degan gʻoyani eng kerakli va taʼsirchan jumlarlar orqali isbotlaydi.

Qodiriy jamiyat aʼzolarining bir-biriga boʻlgan munosabatini oʻta salbiy jihatlar bilan tasvirlaydi. Bu dahshatli tasvir zamirida esa insonparvarlik (gumanizm) ideali yashiringan deb hisoblashimiz mumkin. Misol uchun asarda berilgan ushbu jumlagi qaraymiz.

“Biz oʻzaro qirgʻin qilamiz, bir-birimizni goʻshtimizni yeymiz...”³

“Bir-birining goʻshtini yeyish” jumlasida jamiyatdagi salbiy jihat ifodalangan boʻlsada, adib bu metaforasi orqali millatdoshiga nisbatan rahm-shafqat va mehr tuygʻusini uygʻotishga harakat qilgan. Boshqacha qilib aytganda, yovuzlik nohaqlik kabi illatlarni shunchalik vahshiy koʻrinishlarda tasvirlab beradiki, natijada bu asarni oʻqigan, tahlil qilgan va mushohada yuritgan har bir kishida yaxshilikka intilish instinkti paydo boʻladi. Adib millatning uzoqni koʻra olmasligini, oʻz oyogʻi ostidagi dushmani sezmasligini ham ayanchli tarzda ifodalaydi. Misol uchun Otabek tomonidan Margʻilondagi boy savdogar Akram hojining uyida toʻplangan mehmondorchilik ahliga qarata aytilgan usbu jumlada

“...ammo chetdan kelgan dushman poyimizda turib bizni kuzatadi.”⁴

Qodiriy millatni gʻaflatdan uygʻonishga, hushyorlikka va siyosiy mustaqillikka undaydi. Gʻanim obrazining “oyoq ostimizda” ekanligi holati - insoniy va milliy gʻururni asrash kerakligi haqidagi estetik idealning inkor orqali tasdiqlanishidir.

Bundan tashqari Qodiriy ijtimoiy determinizm falsafasi asosida insonni oʻsha davrda hukmron boʻlgan muhit qurboni sifatida talqin etiladi. Boshqacha qilib aytganda jamiyatdagi voqea-jodisalar insonga bevosita taʼsir koʻrsatgan holda uni shakllantiradi deb hisoblaydi. Oʻzining “Oʻtkan kunlar” asarida yangicha fikrlaydigan, dunyo ilmiga

³ Qodiriy, A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild: Oʻtkan kunlar (Roman). – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1994. – 416 b.

⁴ Oʻsha manbaa

qiziqqan, adolatli va madaniyatli qatlam vakili sifatida ko‘rsatib bergan Ziyo shohichi obrzi orqali sog‘lom ijtimoiy muhit orzusini gavdalantirgan bo‘lsa, “Mehrobdan chayon” asarida qalbi pok, ilmga tashna hamda xiyonat kabi illatlardan uzoq bo‘lgan Anvar obrazi orqali sog‘lom ma’naviy intilishlarni ifodalab beradi. Va aksincha, Xudoyorxon yoki Solih maxdum kabi obrazlar orqali muhitning insonni naqadar tubanlashtirishi mumkinligini (determinizm) ko‘rsatadi.

Qodiriyning “Shaxs va Davlat” ziddiyati falsafasi bo‘yicha ifodalangan qarashlarini ham inobatga olish lozim. Bu falsafiy yondashuvni adib tomonidan mohirona ifodalab berilishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda Qodiriy o‘z asar qahramonlarining o‘tkir va ayanchli iqrorlari orqali bu falsafa mohiyatini yanada yaqqolroq ko‘rsatishga harakat qilgan. Misol uchun “O‘tkan kunlar” romanidagi ma’naviy ustun hisoblangan Yusufbek hoji tomonidan o‘g‘li Otabek bilan zindondan qutilib, yurtning parokandaligini ko‘rib, daryo bo‘yida aytgan chuqur armonli *“Bizning bu qora kunlarga qolishimiz o‘zimizning ittifoqsizligimizdan, bir-birimizga g‘animligimizdan”*⁵ jumlasida Qodiriy tanqidiy realizm tamoyili asosida millat hayotidagi fojining asl sababini jamiyat hayotidagi mavjud ichki nizolar ekanligini ochiq ko‘rsatib beradi. Qodiriy bu obrazlar tili hamda qarashlari orqali quyidagi falsafiy xulosani ifodalagn deb aytishimiz mumkin:

- Yusufbek hoji orqali - hokimiyatning vijdon bilan to‘qnashuvini ya’ni bu orqali davlat o‘zining ma’naviy ustunlarini (vijdonli, ilm ahlini) chetga sursa, inqirozga mahkum bo‘lishi falsafasini;

- Otabek orqali - davlatning haqiqat bilan to‘qnashuvini orqali davlatning sub’ektiv manfaatlari ob’ektiv haqiqatni qanday bo‘g‘ishini;

- Anvar orqali - davlatning erkin muhabbat bilan to‘qnashuvi nazdida insoniy huquq va erkinliklarining siyosiy irodadan baland ekanligini;

⁵ Qodiriy, A. To‘la asarlar to‘plami. 1-jild: O‘tkan kunlar / A. Qodiriy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 424 b.

- Solih maxdum orqali - davlatning insoniy qadr-qimmatni qadrlamagani orqali qachonki davlat mashinasi shaxsning ichki olamiga, erkiga tajovuz qila boshlasa, u davlat o'zining ma'naviy asosini yo'qotib tanazulga yuz tutishi falsafasini ifodalaydi.

Tanqidiy realizmning ijtimoiy-falsafiy va metodologik asosi hisoblangan tarixiy dialektika falsafasiga ko'ra Qodiriy ijtimoiy-psixologik tahlil ustasi sifatida o'zining asarlarida jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishidagi to'siqlarni aks ettiradi. Adib tomonidan konservatizmga asoslangan qarashlar va tafakkurni o'z o'rnini bo'shatib berishni istamasligi va yangilikning hali zaifligi o'rtasidagi konflikt ham tasvirlab berilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qodiriy tasvilagan Otabek obarzida uning savdo sohasidagi intilishlari, yangiliklari, hamda uning Sharq va G'arb o'rtasidagi farqlar haqidagi fikr-mulohazalari - yangi davr nafasini aks ettirgan deya olamiz. Ammo mazkur yangicha qarashlar bilan birgalikda adib eski, turg'un vaziyatdagi feodal tuzum (xonliklar) tomonidan bu kabi yangicha qarashlarni bo'g'ib tashlanganligini ham ko'rsatib bergan. O'zining yangicha qarashlari bilan birgalikda Qodiriy jamiyatimiz milliy mentalitetidagi kamchilik va nuqsonlar tahlilini ham ochib berishga e'tibor qaratib quyidagilarni "Ijtimoiy illatlar" sifatida ko'rsatib beradi:

- jamiyatning eng katta fojiasi sifatida ko'rsatilgan Jaholat va ma'rifatsizlik;
- davlatni ich-ichidan kemiradigan mahalliychilik va urug'-aymoqchilik;
- xotin-qizlarning cheklangan huquq va erkinliklari hamda ko'p xotinlilik;
- diniy aqidalarning noto'g'ri ifodalanishi.

Shu sababli ham Qodiriy bu jamiyat hayotini parokanda qilayotgan bu kabi illatlarni shunchaki tanqid qilmagan, balki xalqni har tomonlama uyg'onishga, o'zlikni anglash orqali jamiyatimizni yangilashga chaqirgan deb ayta olamiz.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyotida tanqidiy realizmning yuksak namunasi bo'lish bilan birga, jamiyat taraqqiyoti, inson tabiati va davlat boshqaruvi masalalarini chuqur falsafiy tahlil qilgan muhim ma'naviy meros hisoblanadi. Adib o'z asarlarida tarixiy voqealarni shunchaki badiiy tasvirlash bilan cheklanmay, balki jamiyat tanazzulining asl sabablarini – jaholat, ma'rifatsizlik, ichki nizolar, mahalliychilik, diniy

aqidalarni noto‘g‘ri talqin etish, ayollar huquqlarining cheklanishi va siyosiy parokandalik kabi omillarni sabab-oqibat (kauzallik) tamoyili asosida ochib beradi.

Qodiriy tanqidiy realizmni jamiyatni ayblash vositasi emas, balki uni ma’naviy jihatdan davolash va yangilash falsafasi sifatida talqin qiladi. Shu ma’noda u tarixiy dialektika, ijtimoiy determinizm, antropotsentrizm hamda “inkor orqali tasdiqlash” falsafiy prinsiplariga tayangan holda kitobxonni voqelikni tanqidiy mushohada qilishga, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini anglashga va kelajak uchun xulosa chiqarishga undaydi.

Adib yaratgan Otabek, Yusufbek hoji, Anvar kabi obrazlar orqali ilm, adolat, vatanparvarlik va insoniylik g‘oyalari ulug‘lansa, Xudoyorxon, Solih maxdum hamda boshqa salbiy obrazlar vositasida hukmron muhitning inson va jamiyatni tanazzulga olib boruvchi illatlari fosh etiladi. Natijada Qodiriy shaxs va davlat, erkinlik va hokimiyat, haqiqat va manfaat o‘rtasidagi ziddiyatlarning falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Shunday qilib, Abdulla Qodiriyning tanqidiy realizmi nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritgan, balki bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan umuminsoniy g‘oyalarni ilgari surgan falsafiy-badiiy tizimdir. Uning asarlari millatning o‘zligini anglash, ma’naviy uyg‘onish va adolatli jamiyat qurish yo‘lida muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho adabiy meros sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020. – 400 b.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2021. – 320 b.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 560 b.
4. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriy mahorati. – Toshkent: Fan, 1974. – 248 b.
5. Yoqubov I. Badiiy tafakkur va realizm. – Toshkent: Fan, 1985. – 216 b.
6. Belinskiy V.G. Tanlangan adabiy-estetik asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1955. – 512 b.
7. Lukach G. Tarixiy roman (rus tilidan tarjima). – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1988. – 430 b.

8. Hegel G.W.F. Tarix falsafasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 456 b.
9. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 256 b.
10. Mirzayev S. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 624 b.
11. Mamajonov S. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 352 b.
12. Hamdamov U. Badiiy tafakkur evolyutsiyasi va realizm muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 288 b.
13. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1–12 jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar instituti. Jadidchilik va milliy uyg‘onish masalalariga oid ilmiy to‘plamlar. – Toshkent, 2019.
15. Aristotle. Poetics. Translated by Malcolm Heath. – London: Penguin Classics, 1996.

INTERNET MANBALARI:

1. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-qodiriy>
2. <https://marifat.uz>
3. <http://qodiriy.uz/uz/biography>
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/abdulla-qodiriy>
5. <https://www.academia.edu/search?q=Abdulla+Qodiriy>
6. <https://www.academia.edu>
7. <https://www.natlib.uz>
8. <https://scholar.google.com>